NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1-may holatiga ko'ra*
*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-may holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 21 059 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 18 692 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 92,2 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 91,0 foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-may holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 123 | 5,7 % |
| Sanoat | 221 | 8,0 % |
| Qurilish | 39 | 3,0 % |
| Savdo | 312 | 3,9 % |
| Tashish va saqlash | 32 | 4,4 % |
| Yashash va ovqatlanish | 100 | 8,2 % |
| Axborot va aloqa | 45 | 15,3 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 13 | 3,8 % |
| Boshqa turlar | 125 | 3,0 % |

2024-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 1 010 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 67,9 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 625 ta, xususiy korxonalar soni 176 ta va oilaviy korxonalar soni 182 tani tashkil etadi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 275 | 5,6 % | Zarafshon sh. | 58 | 4,2 % |
| Karmana t. | 136 | 4,3 % | Nurota t. | 56 | 3,9 % |
| Xatirchi t. | 107 | 4,3 % | Tomdi t. | 39 | 6,4 % |
| Qiziltepa t. | 100 | 3,6 % | Uchquduq t. | 32 | 3,9 % |
| Navbahor t. | 91 | 4,5 % | G‘ozg‘on sh. | 28 | 6,6 % |
| Konimex t. | 88 | 8,8 % | | | |

*2024- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**2 163**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**2 774**



Sanoat

**1 307**



Qurilish

**8 053**



Savdo

**734**



Tashish va saqlash

**1 224**



Yashash va ovqatlanish

**294**




Axborot va aloqa

**343**



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**4 167**



Boshqa turlar

2024-yil 1-may holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 21 059 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 38,2 foiz, sanoat –13,2 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 10,3 foiz, qurilish – 6,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 5,8 foiz, tashish va saqlash – 3,5 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,6 foiz, boshqa turlari – 19,8 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 4 908 | Zarafshon sh. | 1 371 |
| Karmana t. | 3 188 | Konimex t. | 995 |
| Qiziltepa t. | 2 788 | Uchquduq t. | 812 |
| Xatirchi t. | 2 508 | Tomdi t. | 607 |
| Navbahor t. | 2 016 | G‘ozg‘on sh. | 423 |
| Nurota t. | 1 443 | | |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 123 | 5,7 % |
| Sanoat | 219 | 7,9 % |
| Qurilish | 39 | 3,0 % |
| Savdo | 312 | 3,9 % |
| Tashish va saqlash | 32 | 4,4 % |
| Yashash va ovqatlanish | 100 | 8,2 % |
| Axborot va aloqa | 45 | 15,7 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 13 | 4,6 % |
| Boshqa turlar | 100 | 5,0 % |

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda.

2024-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 983 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 979 ta;
- yirik korxonalar 4 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 264 | 26,9 % | Zarafshon sh. | 57 | 5,8 % |
| Karmana t. | 134 | 13,6 % | Nurota t. | 54 | 5,5 % |
| Xatirchi t. | 106 | 10,8 % | Tomdi t. | 38 | 3,9 % |
| Qiziltepa t. | 96 | 9,8 % | Uchquduq t. | 31 | 3,2 % |
| Navbahor t. | 90 | 9,2 % | G‘ozg‘on sh. | 26 | 2,6 % |
| Konimex t. | 87 | 8,9 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — Sanoat — Qurilish

Savdo — Tashish va saqlash — Yashash va ovqatlanish

Axborot va aloqa — Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish — Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-may holatiga 18 794 taga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,1 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 42,8 foiz, sanoat –14,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 11,4 foiz, qurilish – 6,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 3,9 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 10,7 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 4 299 | Zarafshon sh. | 1 243 |
| Karmana t. | 2 926 | Konimex t. | 864 |
| Qiziltepa t. | 2 547 | Uchquduq t. | 692 |
| Xatirchi t. | 2 218 | Tomdi t. | 523 |
| Navbahor t. | 1 838 | G‘ozg‘on sh. | 388 |
| Nurota t. | 1 256 | | |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 123 | 5,8 % |
| Sanoat | 219 | 8,0 % |
| Qurilish | 39 | 3,0 % |
| Savdo | 312 | 3,9 % |
| Tashish va saqlash | 32 | 4,4 % |
| Yashash va ovqatlanish | 100 | 8,2 % |
| Axborot va aloqa | 45 | 15,7 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 13 | 4,6 % |
| Boshqa turlar | 96 | 4,8 % |











Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 31,9 foiz, sanoat – 22,4 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 12,6 foiz, qurilish – 4,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 10,2 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, axborot va aloqa – 4,6 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,3 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 260 | 6,1 % | Zarafshon sh. | 57 | 4,6 % |
| Karmana t. | 134 | 4,6 % | Nurota t. | 54 | 4,3 % |
| Xatirchi t. | 106 | 4,8 % | Tomdi t. | 38 | 7,3 % |
| Qiziltepa t. | 96 | 3,8 % | Uchquduq t. | 31 | 4,5 % |
| Navbahor t. | 90 | 4,9 % | G‘ozg‘on sh. | 26 | 6,7 % |
| Konimex t. | 87 | 10,2 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (22,8 foiz), Karmana (15,6 foiz), Qiziltepa (13,6 foiz), Xatirchi (11,8 foiz) va Navbahor (9,8 foiz), Zarafshon shahri (6,6 foiz), Nurota (6,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 4 257 | Zarafshon sh. | 1 234 |
| Karmana t. | 2 911 | Konimex t. | 855 |
| Qiziltepa t. | 2 543 | Uchquduq t. | 690 |
| Xatirchi t. | 2 211 | Tomdi t. | 521 |
| Navbahor t. | 1 833 | G‘ozg‘on sh. | 386 |
| Nurota t. | 1 251 | | |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 202 |
| Zarafshon sh. | 23 |
| G‘ozg‘on sh. | 14 |
| Konimex t. | 298 |
| Qiziltepa t. | 222 |
| Navbahor t. | 253 |
| Karmana t. | 319 |
| Nurota t. | 345 |
| Tomdi t. | 188 |
| Uchquduq t. | 49 |
| Xatirchi t. | 250 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 640 |
| Zarafshon sh. | 207 |
| G‘ozg‘on sh. | 228 |
| Konimex t. | 70 |
| Qiziltepa t. | 263 |
| Navbahor t. | 206 |
| Karmana t. | 454 |
| Nurota t. | 213 |
| Tomdi t. | 79 |
| Uchquduq t. | 126 |
| Xatirchi t. | 288 |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni 74,7 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 13,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan - 88,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 76,4 foizni tashkil etdi), 7,6 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 88,6 foizni tashkil etdi), 3,0 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 137,7 foizni tashkil etdi) va 0,5 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi) tashki etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 393 |
| Zarafshon sh. | 112 |
| G‘ozg‘on sh. | 16 |
| Konimex t. | 30 |
| Qiziltepa t. | 194 |
| Navbahor t. | 117 |
| Karmana t. | 229 |
| Nurota t. | 82 |
| Tomdi t. | 29 |
| Uchquduq t. | 28 |
| Xatirchi t. | 77 |

1 307 2024
2023 1 533
1 756 2022
2021 1 593
1 496 2020

O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 49,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 76,6 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,0 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 34,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 88,2 foizni tashkil etdi.



210 Fuqarolik obyektlarini qurish

450 Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



647 Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 1 786 |
| Zarafshon sh. | 458 |
| G‘ozg‘on sh. | 88 |
| Konimex t. | 226 |
| Qiziltepa t. | 1 370 |
| Navbahor t. | 1 002 |
| Karmana t. | 1 196 |
| Nurota t. | 345 |
| Tomdi t. | 165 |
| Uchquduq t. | 291 |
| Xatirchi t. | 1 126 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 8 038 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 72,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 18,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 99,0 foizni tashkil etdi.

| 703 | 1 512 | 5 838 |
|---|---|---|
| Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash | Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo | Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo |

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 271 |
| Zarafshon sh. | 184 |
| G‘ozg‘on sh. | 6 |
| Konimex t. | 46 |
| Qiziltepa t. | 155 |
| Navbahor t. | 58 |
| Karmana t. | 190 |
| Nurota t. | 56 |
| Tomdi t. | 20 |
| Uchquduq t. | 84 |
| Xatirchi t. | 154 |




2024-yil 1-may holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 94,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 10,9 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 89,1 foiz ulushini tashkil etdi.

**133** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 091** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 90 |
| Zarafshon sh. | 20 |
| G‘ozg‘on sh. | 6 |
| Konimex t. | 7 |
| Qiziltepa t. | 34 |
| Navbahor t. | 19 |
| Karmana t. | 55 |
| Nurota t. | 12 |
| Tomdi t. | 2 |
| Uchquduq t. | 14 |
| Xatirchi t. | 35 |




2024-yil 1-may holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 16,3 foizini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 37,4 foizini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 46,3 foizini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,8 foizni tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 147 |
| Zarafshon sh. | 36 |
| G‘ozg‘on sh. | 3 |
| Konimex t. | 5 |
| Qiziltepa t. | 23 |
| Navbahor t. | 18 |
| Karmana t. | 42 |
| Nurota t. | 9 |
| Tomdi t. | 9 |
| Uchquduq t. | 13 |
| Xatirchi t. | 38 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 343 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

92,7 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 78,6 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,1 foizini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 82,4 foizni tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Navoiy sh. | 209 |
| Zarafshon sh. | 34 |
| G‘ozg‘on sh. | 3 |
| Konimex t. | 4 |
| Qiziltepa t. | 144 |
| Navbahor t. | 48 |
| Karmana t. | 186 |
| Nurota t. | 11 |
| Tomdi t. | 10 |
| Uchquduq t. | 15 |
| Xatirchi t. | 70 |




2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar 90,7 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishi 103,1 foizni;

pochta va kuryerlik yo‘nalishi 87,5 foizni tashkil etdi.

| Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|
| 21 | 101 | 612 |

# 3- BO‘LIM. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR

**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

| | Tadbirkorlik subyektlari soni | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| Mas’uliyati cheklangan jamiyat | 11 105 | 59,1 % |
| Xususiy korxona | 4 230 | 22,5 % |
| Oilaviy korxona | 3 322 | 17,7 % |
| Aksiyadorlik jamiyat | 15 | 0,1 % |
| Boshqalar | 122 | 0,6 % |

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**79** — **5,1 %**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**91** — **6,2 %**



Sanoat

**32** — **3,1 %**



Qurilish

**225** — **5,2 %**



Savdo

**29** — **4,4 %**



Tashish va saqlash

**53** — **10,3 %**



Yashash va ovqatlanish

**34** — **18,9 %**




Axborot va aloqa

**9** — **6,3 %**



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**73** — **5,7 %**



Boshqa turlar

**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 194 | 6,5 % | Uchquduq t. | 30 | 5,0 % |
| Karmana t. | 88 | 5,1 % | Zarafshon sh. | 35 | 6,2 % |
| Qiziltepa t. | 66 | 3,4 % | Konimex t. | 31 | 7,0 % |
| Xatirchi t. | 64 | 7,4 % | Tomdi t. | 16 | 5,9 % |
| Navbahor t. | 56 | 6,3 % | G‘ozg‘on sh. | 4 | 4,3 % |
| Nurota t. | 41 | 5,7 % | | | |

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**1 535**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**1 458**

Sanoat

**1 023**

Qurilish

**4 304**

Savdo

**660**

Tashish va saqlash

**517**

Yashash va ovqatlanish

**180**


Axborot va aloqa

**142**

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**1 286**

Boshqa turlar

2024- yil 1-may holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 21 059 ta korxona va tashkilotlarining 11 105 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi.

Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo‘yidagicha bo‘ldi: savdo – 38,8 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 13,8 foiz, sanoat – 13,1 foiz va qurilish – 9,2 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 2 991 | Uchquduq t. | 597 |
| Qiziltepa t. | 1 933 | Zarafshon sh. | 569 |
| Karmana t. | 1 734 | Konimex t. | 443 |
| Navbahor t. | 893 | Tomdi t. | 269 |
| Xatirchi t. | 865 | G‘ozg‘on sh. | 93 |
| Nurota t. | 718 | | |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 31 | 10,3 % |
| Sanoat | 44 | 7,0 % |
| Qurilish | 6 | 2,8 % |
| Savdo | 46 | 2,2 % |
| Tashish va saqlash | 3 | 6,4 % |
| Yashash va ovqatlanish | 21 | 6,3 % |
| Axborot va aloqa | 7 | 8,9 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 2 | 2,2 % |
| Boshqa turlar | 16 | 3,5 % |











**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## Hududlar kesimida

| Hudud | Soni | Foiz | Hudud | Soni | Foiz |
|---|---|---|---|---|---|
| Konimex t. | 49 | 19,4 % | Zarafshon sh. | 16 | 3,0 % |
| Tomdi t. | 22 | 10,4 % | Qiziltepa t. | 7 | 2,2 % |
| Navbahor t. | 19 | 4,3 % | Nurota t. | 4 | 1,4 % |
| Xatirchi t. | 19 | 2,3 % | Karmana t. | 4 | 1,0 % |
| Navoiy sh. | 18 | 2,8 % | | | |
| G‘ozg‘on sh. | 18 | 7,2 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni — Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 230 tani tashkil etdi.

Xusuisy tadbirkorlik subyektlari shahar va tumanlar kesimi bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo‘yidagicha bo‘ldi: Xatirchi (19,4 foiz), Navoiy (15,1 foiz), Zarafshon (12,8), Navbahor (10,4 foiz), Karmana (9,9 foiz), Qiziltepa (7,6 foiz), Nurota (6,5 foiz), G‘ozg‘on (5,9 foiz), Tomdi (5,0 foiz), Konimex (6,0 foiz), Uchquduq (1,3 foiz) shahar va tumanlar tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Xatirchi t. | 821 |
| Navoiy sh. | 640 |
| Zarafshon sh. | 540 |
| Navbahor t. | 441 |
| Karmana t. | 419 |
| Qiziltepa t. | 322 |
| Nurota t. | 276 |
| Konimex t. | 253 |
| G‘ozg‘on sh. | 251 |
| Tomdi t. | 211 |
| Uchquduq t. | 56 |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 13 | 4,9 % |
| Savdo | 41 | 2,5 % |
| Yashash va ovqatlanish | 26 | 7,0 % |
| Sanoat | 84 | 13,0 % |
| Axborot va aloqa | 4 | 21,1 % |
| Boshqa turlar | 11 | 4,6 % |
| Qurilish | 1 | 2,2 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 2 | 4,3 % |


















**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 52 | 8,3 % | Konimex t. | 7 | 4,5 % |
| Karmana t. | 42 | 5,5 % | Zarafshon sh. | 6 | 4,7 % |
| Xatirchi t. | 23 | 4,5 % | G‘ozg‘on sh. | 4 | 9,5 % |
| Qiziltepa t. | 23 | 8,1 % | Uchquduq t. | 1 | 2,9 % |
| Navbahor t. | 15 | 3,0 % | | | |
| Nurota t. | 9 | 3,8 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni | Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

267

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

647

Sanoat

46

Qurilish

1 664

Savdo

25

Tashish va saqlash

369

Yashash va ovqatlanish

19


Axborot va aloqa

47

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

238

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-may holatiga 3 322 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Karmana t. | 764 | Konimex t. | 157 |
| Navoiy sh. | 623 | Zarafshon sh. | 129 |
| Xatirchi t. | 511 | G‘ozg‘on sh. | 42 |
| Navbahor t. | 499 | Tomdi t. | 38 |
| Qiziltepa t. | 285 | Uchquduq t. | 34 |
| Nurota t. | 240 | | |

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1

5,6 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

5

4,4 %



Sanoat

1

2,6 %



Savdo

1

33,3 %



Tashish va saqlash

4

57,1 %




Axborot va aloqa

1

3,8 %



Boshqa turlar

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Navoiy sh | 9 | 11,8 % |
| Konimex t. | 2 | 12,5 % |
| Navbahor t. | 1 | 10,0 % |
| Karmana t. | 1 | 1,7 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



| Faoliyat turi | Soni |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 18 |
| Sanoat | 114 |
| Qurilish | 15 |
| Savdo | 39 |
| Tashish va saqlash | 3 |
| Yashash va ovqatlanish | 4 |
| Axborot va aloqa | 7 |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 3 |
| Boshqa turlar | 26 |

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 1,7 foizga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 50 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,8 foiz), Eron Islom (8,7 foiz), Turkiya (ulushi 7,4 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,1 foiz) va Qozog‘iston (ulushi 6,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 76 | Qiziltepa t. | 10 |
| Karmana t. | 59 | Navbahor t. | 10 |
| Konimex t. | 16 | Tomdi t. | 8 |
| Zarafshon sh. | 15 | Uchquduq t. | 5 |
| Xatirchi t. | 14 | G‘ozg‘on sh. | 5 |
| Nurota t. | 11 | | |

# Davlatlar kesimida yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida

*2024- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 5 |
| Rossiya Federatsiyasi | 2 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 1 |
| Malta Respublikasi | 1 |
| Hindiston Respublikasi | 1 |
| Turkiya Respublikasi | 1 |
| Belorussiya Respublikasi | 1 |
| Birlashgan Arab Amirligi | 1 |

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 50 |
| Rossiya Federatsiyasi | 34 |
| Eron Islom Respublikasi | 20 |
| Turkiya Respublikasi | 17 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 14 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 14 |
| Hindiston Respublikasi | 8 |
| Turkmaniston Respublikasi | 6 |
| Boshqa Davlatlar | 66 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 103 tasi qo‘shma korxonalar, 126 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 37 | Navoiy shahri | 39 |
| 10 | Zarafshon shahri | 5 |
| 3 | G‘ozg‘on shahri | 2 |
| 10 | Konimex tumani | 6 |
| 4 | Qiziltepa tumani | 6 |
| 6 | Navbahor tumani | 4 |
| 37 | Karmana tumani | 22 |
| 6 | Nurota tumani | 5 |
| 2 | Tomdi tumani | 6 |
| 3 | Uchquduq tumani | 2 |
| 8 | Xatirchi tumani | 6 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda*

| | xorijiy korxonalar | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 8 | 10 |
| Sanoat | 52 | 62 |
| Qurilish | 11 | 4 |
| Savdo | 25 | 14 |
| Tashish va saqlash | 1 | 2 |
| Yashash va ovqatlanish | 4 | - |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 2 | 1 |
| Axborot va aloqa | 7 | - |
| Boshqa turlar | 16 | 10 |

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- may holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.


Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
ko‘rsatish bo‘limi
Tel.:79.223.42.67